



Nigina TUXTASINOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, (Phd)
E-mail:nigina.tuxtasinova@gmail.com

O'zDJTU professori,f.f.d J.A Yakubov taqrizi ostida

O'ZBEKCHA-FRANSUZCHA AGIOGRAFIK TERMINLAR LUG'ATI YARATISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada xorij olimlari tomonidan yaratilgan agiografik, islomiy atamalar, diniy istilohlar kabi izohli va tarjima lug'atlari tadqiq etildi. Tadqiqot doirasida mazkur yo'nalishlarda olib borilgan ishlar o'rganildi va shu narsaga amin bo'lindiki, xorij olimlari agioterminlar, diniy terminlar, islomiy atamalar kabi bir qancha lug'atlarning zamonaviy avlodini yaratib ulgurishgan hamda mazkur sohaning nazariy masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular tadqiqotlarini birma-bir tahlilga tortib, kerakli o'rinlarda o'zimizning ilmiy munosabatimizni berildi. Terminologik lug'atlar ishlab chiqishda faqatgina lingvistik bilimlarning o'zi yetarli emas, ekstarlingvistik bilimlar, qomusiy bilimlar birlamchi omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Agioterminlar, diniy terminlar, islomiy atamalar,agiologiya, lug'at,tamoyil.

СОВРЕМЕННЫЕ ПРИНЦИПЫ СОСТАВЛЕНИЯ УЗБЕКСКО-ФРАНЦУЗСКИХ АГИОГРАФИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ

Аннотация

В статье исследуются толковые и переводные словари агеографических, исламских терминов, религиозных терминов, созданные зарубежными учеными. В ходе исследования была изучена работа, проделанная в этих областях, и было установлено, что зарубежные ученые создали словари современного поколения, такие как словари агioterминов, религиозных терминов, исламских терминов, и провели исследования по теоретическим вопросам в этой области. Они проводили свои исследования одно за другим, и при необходимости получали свой собственный научный подход. При разработке терминологических словарей одних лишь лингвистических знаний недостаточно, экстралингвистические знания, энциклопедические знания являются основным фактором.

Ключевые слова: Агиотермины, религиозные термины, исламские термины, агиология, словарь, принцип.

MODERN PRINCIPLES OF CREATING DICTIONARY OF UZBEK-FRENCH HAGIOGRAPHIC TERMS

Annotation

This article examines the explanatory and translated dictionaries of agiographic, Islamic terms, religious terms created by foreign scientists. The study examined the work done in these areas and made sure that foreign scientists have created a modern generation of dictionaries, such as dictionaries of agioterms, religious terms, Islamic terms, and conducted research on theoretical issues in this field. They drew their research one by one and were given their own scientific approach where appropriate. In the development of terminological dictionaries, linguistic knowledge alone is not enough, extralinguistic knowledge, encyclopedic knowledge is the primary factor.

Key words: Hagiology, religious terms, Islamic terms, hagiology, vocabulary, principle.

Kirish. Umumjahon globalizatsiya gibrad madaniyat-larning paydo bo'lishi, milliy an'analarning qisman o'zgarishi, millatlararo hamkorlikning kuchayishi natijasida tillimizga turli xil atamalar, o'zlashmalar kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa lug'atshunoslar oldiga zamonaviy lug'atlar avlodini yaratish, o'zlashmalarni kiritish va yangilash vazifasini qo'yimoqda. Bu borada M.Umarxo'jayevning ta'kidini o'rinli deb hisoblaymiz:

“Lug'at doim zamonga hamnafas tarzda mukam-mallashib borishi zarur. Biroq lug'atlar qanchalik zamonaviy bo'lmasin, davrdan ma'lum darajada orqaga qolib, so'zlar hamda ular ifodalagan narsa va hodisalar o'rtasidagi u yoki bu hodisalar o'rtasidagi u yoki bu o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangicha munosabatlarni talab qiladi” [1].

Zero, har qanday milliy tilning asosiy so'z boyligi shu tilning tarixan rivojlanishi hamda muayyan lug'atini yaratish chog'idagi turg'un holatini lisoniy tizim va nutqiy faoliyat birligida ifoda qiluvchi katta hajmli filologik lug'atlar ulkan madaniy ahamiyatga molik ishlar sifatida baholashga loyiqdir. Bugungi kunda tadqiqotlar fanlararo uyg'unlikda olib borilmoqda, chunki har bir yo'nalish o'zaro fanlar va sohalararo aloqadorlik kasb etmoqda. Tarjimashunoslik, badiiy tarjima, adabiyotshunoslik fanlari ham bevosita leksikografiya sohasi bilan chambarchas bog'liq. Binobarin,

leksikografiyaning dolzarb amaliy vazifalaridan biri bu professional tarjimonlar va tarjima bilan kundalik hayotida doimo to'qnashadigan ko'p sonli mutaxassislar uchun tarjima lug'atlarini yetkazib berishdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqot doirasida mazkur yo'nalishlarda olib borilgan ishlar o'rganildi va shu narsaga amin bo'lindiki, xorij olimlari agioterminlar, diniy terminlar, islomiy atamalar kabi bir qancha lug'atlarning zamonaviy avlodini yaratib ulgurishgan hamda mazkur sohaning nazariy masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ular tadqiqotlarini birma-bir tahlilga tortib, kerakli o'rinlarda o'zimizning ilmiy munosabatimizni berishni lozim topdik.

S.Ragasov islom dini va islom madaniyati bilan aloqa-dor bo'lgan so'zlar va birikmalarning leksikografik tavsifini rus tili lug'atlarida berilishini, ularning tasnifining adekvatligi, ma'lumotlarning faktarga asoslanganligini ko'rib chiqqan[2]. Shuningdek, zamonaviy rus nutqida va ommaviy axborot vositalari matnlarida uchragan bunday atamalarni berishda uchragan noqisliklar matnlar tahlili orqali ochib berib mazkur sohada mavjud muammoni qaysidir ma'noda yechishga o'z hissasini qo'shgan.

Olim islomiy atamalarni turli xil lug'atlarda berilishini tahlil qilar ekan ba'zi lug'atlarda bunday atamalar sharhida

turli xil yondashuvlar yoki bo'lmasa noadekvat sharhlar uchrashini keskin tanqid qiladi. Iqtibosda keltirilgan lug'atlarda islomiy atamalarining berilishini o'rganar ekan ayniqsa, unda tarixiy asoslar, faktlar noadekvat ifoda etilganligini ya'ni ramazon, quron, machit, jihat va boshqa atamalarining izohlari orqali ochib beradi: Masalan bir lug'atda "Ro'za" bayramidan 70 kun o'tgandan so'ng bayram qilishi aytilsa, ikkinchi lug'atda Qurbon hayiti Ramazon bilan birlashtiriladi va ro'za 40 kun davom etadi 29 kun ro'za tutiladi degan chalkashliklar kuzatiladi [3].

Demak, tarjimon o'zbek tilidan chet tiliga mazkur sohadagi kontekstni tarjima qilishda xuddi yuqorida berilgan lug'atlardagi sharhlardan foydalansa, islomiy atamalar izohini noto'g'ri berishiga olib keladi. Chunki, matnda islomiy atamalarni berishda tarjima tilida uning muqobil bo'lmasa unda sahifa iqtibosida yoki matn ichida izohlab o'tiladi. Bu esa lug'atga asoslangan tarjimonning asiyatdagi mazmunni tarjima tilida noadekvat berishiga olib keladi. Bu borada tarjimashunos Raima Shirinovaning "... ma'lum bir sohaga oid terminlarni o'girishdek mas'uliyatli ishga alohida tayyorgarlik, keng bilim va to'liq ma'lumotga asoslanish zarur. Bu albatta tarjimondan lingvistik va ekstralingvistik bilimlar darajasining yuqoriligi talab etadi" degan fikrlarini keltirib o'tishni o'rinni hisoblaymiz. Tarjimonning ekstralingvistik bilimlari yetarli bo'lmagan hollarda o'rtamiyona tarjimalar paydo bo'lishiga olib keladi. Fransuz olimi Bruno Rochette o'zining diniy matnlar tarjimasiga bag'ishlangan tadqiqotida diniy terminlar tarjimasida diniy ta'limotlar to'g'risida bilimning ustivorligi, terminlarni tarjima tilida berishda terminologik lug'atlarning mavjudligi, tarjimonlarning diniy terminlarni berishdagi mavjud tamoyillardan xabardor bo'lishi muhim omil hisoblanishini qayd etadi [4].

X.K.Guseynova darg tilidagi diniy terminlarni o'rganishda ularni arxaik, o'zlashma so'zlar, neologizmlardan farqi va o'zaro ta'siriga e'tibor qaratadi. U dogistontilshunosligida va umumiy tilshunoslikda agiografik terminlarning ahamiyati, tarixiy matnlarda ularning etimologik kelib chiqishi va yasalishi, ularning leksik, semantik, fonetik, morfologik jihatdan moslashuvlarini V.M.Aristov, I.I.Revzina, S.M.Xaydakov, R.A.Budagov, S.I.Omarov, S.S.Efendiyeva, T.Alidjanov, D.Suleymanovlarning ilmiy tadqiqotlariga asoslanib olib boradi [5].

Y.N.Mixaylova rus tilining izohli lug'atlarida o'z aksini topgan diniy provoslav leksikasini turli xil davrlarda berilgan izohlarini tahlil qiladi [6]. U mazkur yo'nalishdagi atamlarni "religionimlar" deb nomlaydi va ularning lug'atlardagi sharhida denotativ va pragmatik ma'nolarini berishda semantik ma'noning o'zgarishini ko'rsatib o'tadi. Shuningdek, Y.Mixaylova agionimlarning rus provoslav lug'atlarida berilishini o'rganib ularni to'rt guruhga ajratadi, ya'ni:

Birinchi guruhga – mazkur guruhga kiritilgan lug'atlar maxsus yo'nalishdagi adresantlarga ya'ni provoslavlarga mo'ljallangan. Ushbu lug'atlarga G.Dyachenkoning 1898-yilda nashr qilingan va 1993-yilda qayta nashrdan chiqqan "Polniy serkovno-slovyanskiy slovar"i tahlilga tortilgan;

Ikkinchi guruhga sovet tuzumi davrida chop etilgan ko'proq ateizm toshviquotchilariga qaratilgan lug'atlar, jumladan, M.P.Navikovning 1975-yilda nashr qilingan "Karmanniy slovar ateista" lug'atlarini kiritadi;

Uchinchi yo'nalishdagi lug'atlar toifasiga barchaga kitobxonlarga mo'ljallangan va ateistik yo'nalishdagi terminlar aks etgan lug'atlar kiritilgan;

To'rtinchi yo'nalishdagi lug'atlar dinga xolis munosabatda bo'lgan barcha foydalanuvchilarga mo'ljallangan lug'atlar kiritilgan, masalan S.I.Ojegov N.L.Shvedovanning (1997) XX asr oxirida chop etilgan "Rus tilining izohli lug'at"i, G.N.Sklyarevsk (2000), "Slovar provoslavnoy

serkovnoy kulturi" kabi lug'atlar leksikografik jihatdan tahlilga tortilgan[7].

Tadqiqot metodologiyasi. Yuliya Mixaylova lug'atlar-da religionimlarni ham son jihatdan ham semantik strukturasi bo'yicha ko'rib chiqadi, lug'atlarda terminlarning ko'payishi ma'no kengayish va torayish holatlari juda chuqur tahlil qiladi. Ayniqsa, turli davrlarda yaratilgan lug'atlardagi ma'lum bir leksemalarni maxsus jadvalga solib ulardagi leksik semantik o'zgarishlarni kuzatadi. Olim quyidagi jadvalda rus tilidagi "gospod" leksemasining lug'atlarda berilishini to'liq ko'rsatib beradi[8].

Mazkur lug'atda provoslavlik, cherkov va diniy hayot bilan bog'liq 2000 dan ortiq so'z va iboralarni o'z ichiga olgan. Lug'atda har bir so'zning grammatik, stilistik va etimologik ma'nolari ochib berilgan, so'ngra yozma adabiyotlardan ya'ni diniy, badiiy va publitsistik matnlardan iqtiboslar keltirilgan. Lug'atda provoslav tushunchalarini to'liqroq ochib berish maqsadida rasm va ikonografik asarlarning suratlaridan unumli foydalanilgan. Rangli illyustratsiyalar o'quvchiga berilgan termin ma'zmunini to'liqroq ochib berish bilan bir qatorda lug'atni madaniy-etestetik jihatdan boyishiga xizmat qilgan. Lug'at keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan bo'lib, ularda provoslav tushunchalari olamida yaxshiroq yo'naltirishga yordam beradi. Shuningdek, u madaniyat-shunoslik sohasidagi mutaxassislar, tilshunoslar, shuningdek, rus tili va madaniyatiga qiziquvchi har bir foydalanuvchiga mo'ljallangan. Bunday tahlillar kelajakda leksikografiya sohasida yaratiladigan lug'atlarga nazariy va amaliy manba bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

D.V.Jivovning Agiografik terminlarning qisqacha lug'ati mazkur sohadagi asosiy material hisoblanadi[9]. Mazkur lug'atda muqaddas insonlar, ularning hayotini o'rganish bilan bog'liq ma'lumotlar, avliyolarning tarixiy teologik, ijtimoiy, madaniy va adabiy qarashlari, g'oyalari vsa boshqa ular bilan aloqador manbalar o'z aksini topgan. Muallifning izohli lug'atida atamalar juda aniq, asosli va ifodalangan. Fikrimiz dalili sifatida lug'atdan atamasiga berilgan izohni keltirib o'tishni ma'qul ko'rdik. Masalan:

"Sinaksar (gr.[grech] συναξαριον), sbornik kratkix jitiy i kratkix slov na razlichniye prazdniki, prednaznachennix dlya chteniya na utreni (posle shestoy pesni kanona). Sinaksari, upotrebyayemye v grecheskoy serkvi, imeyut sleduyushuyu strukturu: posle oboznacheniya dnya i imeni svyatogo (ili prazdnika) idet epigrama v chest svyatogo, napisannaya yambicheskimi stixom, kratkiye istoricheskiye zametki, svedeniya o serkvi, gde pokoyatsya moshhi svyatogo, i o perenesenii moshey, sobstvenno kratkoye jitiye s opisaniyem chudes"[10].

Navbatdagi agiografik yo'nalishdagi lug'atlardan yana biri Grigoriy Dyachenkoning slavyan cherkov terminlar lug'ati bo'lib unda eski rus qo'lyozmalari va risolalarida uchragan 30 000 dan ortiq so'z va iboralar kiritilgan bo'lib, u 1899-yilda ilk bor nashr etilgan[11].

O'zbek olimlarining ham mazkur yo'nalishdagi ishlari o'rganildi. G.Safarova Xatirchi rayoni toponimlarining lug'aviy asoslarini o'rganib, o'zbek tilshunosligida rivojlanib kelayotgan yangi sohalaridan biri o'zbek onomastikasi ekanligini ta'kidlab o'tadi va toponimlarni 13 ta guruhga bo'lib klassifikatsiya qilib machit nomlari, muqaddas qadamjolar, qabristonlarni ham ular tarkibiga kiritadi[12].

Mazkur kitobning so'zboshisida quyidagi fikr bildirilgan:

"O'zbek tilidagi ushbu "Islom ensiklopediyasi"ning mazmun mundarijasini belgilashda jahon qomushchiligi an'analaridan, mazkur sohadagi milliy tajribadan, mavjud nazariy materiallardan ijodiy foydalanishga harakat qilindi. Shu bilan birga, ushbu nashr o'zining mazmun- mohiyati hamda xususiyatlari bilan bundan oldin yaratilgan ensiklopediyalardan tubdan farq qiladi. U ma'lum ma'noda,

umuman islom qomusshunosligining o'ziga kvintessensiyasi bo'lishi nazarda tutilmoqda".

Mazkur ensiklopediyani sinchiklab o'rgandik, haqiqatdan ham ensiklopediyada dunyoga mashhur islomshunoslar, jumladan, G'arb olimlarining tadqiqotlari, hayoti va ijodi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan bo'lib una 50 mingga yaqin maqola, atama, so'z birikmalari, xarita hamda jadvallar ham o'z aksini topgan.

Tahlil va natijalar. Terminologik lug'atlar ishlab chiqishda faqatgina lingvistik bilimlarning o'zi yetarli emas, ekstarlingvistik bilimlar, qomusiy bilimlar birlamchi omil hisoblanadi. M.O'marxo'jayev tomonidan ishlab chiqilgan lug'at juda puxta va ilmiy asoslarga tayangan holda ishlab chiqilgan. Ayniqsa, atamalarga izoh berilganda Abdulhay Sobirov ta'kidlaganidek, ularni mustahkamlovchi misollar ulug' zotlarning ya'ni Imom al Buxoriy, Imom al Termiziy, Alisher Navoiy, Imom G'azzoliy, Nasoriddin Buxoriddin Rabg'uziy, Ahmad Yassaviy, Sidqiy Xondayliqiy kabi alomalarning noyob asarlaridan olinganligi lug'atning ham nazariy ham amaliy qiymatini oshishiga olib kelgan.

Xulosa va takliflar. Xorij olimlari diniy, islomiy, agiologiya, agiografiya sohasidagi terminlarning nazariy tadqiqiga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar olib borganlar. Shuningdek, leksikografik muammolari yechimiga qaratilgan turli xil atamalar lug'atini yaratganlar. Chunki ularda agiografik atamalar lug'atini tuzishda uchun materiallar tanlashda xronologik jihatida (tarixiy nuqati nazar asosida) noadekvatliklar kuzatilgan, adabiy til normasiga e'tibor qaratilmaganligi yoki funksional va stilistik jihatini farqlash borasida yetarlicha kamchiliklar mavjud.

Mazkur maqolada asosan xorij olimlar tomonidan yaratilgan agiografik, islomiy atamalar, diniy istilohlar kabi izohli va tarjima lug'atlarini ko'rib chiqdik. Ammo shuni ta'kidlash joizki, o'zbek leksikografiyasida diniy atamalarning izohli yoki ommabop qisqacha lug'atlari yaratilgan bo'lsa-da ammo bunday terminlarning ikki va ko'p tilli tarjima lug'atlari yaratilmaganliklar biz tomondan amalga oshirilgan ishning amaliy ahamiyati va zaruratini belgilab berdi. Bunday tipdagi lug'atlarni o'rganishdagi maqsad, o'zbek tilida ikki va ko'p tilli agiografik yoki islomiy atamlarning tarjima lug'atlarini ishlab chiqishga asos va material bo'la oladi.

ADABIYOTLAR

1. Umarxo'jayev M. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent 2010. – 28 b.
2. Рагасов С. Слова исламских тематики в словарях русского языка. Вестник КГУ. №4, 2017. – С.217-221.
3. Рагасов С. Слова исламских тематики в словарях русского языка. Вестник КГУ. №4, 2017. – С.240.
4. Bruno Rochette. La traduction de textes religieux dans l'Egypte gréco romain. Revue internationale et le pluridisciplinaire de religion grecque antique. Varia. 1995, 8.
5. Гусейнова Х.К. Религиозная терминология в даргинском языке. Автореф.дисс.канд.филол.наук. – Махачкала, 2018.
6. Михайлова Ю.Н. Религиозная православная лексика и ее судьба (по данным толковых словарей русского языка). Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Екатеринбург 2004. – С. 12.
7. Михайлова Ю.Н. Религиозная православная лексика и ее судьба (по данным толковых словарей русского языка). Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Екатеринбург 2004. – С. 16.
8. Михайлова Ю.Н. Религиозная православная лексика и ее судьба (по данным толковых словарей русского языка). Автореф.дисс... канд.филол.наук. – Екатеринбург 2004. – С. 16.
9. Живов Д.В. Святость. Краткий словарь агиографических терминов. – С.34.
10. Живов Д.В. Святость. Краткий словарь агиографических терминов. – С.66.
11. Дьяченко Г.М. Полный церковно-славянский словарь. — М.: Издательский отдел Московского Патриархата, 1993. — 1158 с.)
12. Safarova G. Словарные основы Хатирчинского топонимии. Вестник наука и образования. №5(83). Часть 1. 2020. – С.52.